

**ERKINLIK VA SHAXSIY DAXLSIZLIK HUQUQINI TA'MINLASHDA
MILLIY VA XALQARO-HUQUQIY ASOSLARNING AHAMIYATI**

*To'xtamurodov Muhridin
Baxtiyorov Faxriyor
Hakimov Ismoil*

Annotatsiya: Ushbu maqolada inson huquqlari himoyasining xalqaro va milliy mexanizmlari, ular tashkil etilishining tarixiy asoslari, huquqiy maqomi, amaliy ahamiyati bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Huquqiy tizim, milli tizim, huquq shakli, xalqaro huquq manbasi, implementatsiya, xalqaro tashkilotlar.

KIRISH

Huquqiy davlatchilik yo'lida O'zbekiston Respublikasi o'zining milliy qonunchiligida inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashni ustuvor vazifa sifatida belgilab oldi. O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati suverenitetini mustahkamlash va huquq ustunligini tasdiqlanishi huquqiy davlatchilikning chambarchas o'zaro aloqadorligini ifodalaydi. Inson huquqlari kafolatlari milliy va xalqaro huquqiy mexanizmi inson huquqlarini amalga oshirishning bir biri bilan bog'liq shartlari tizimidan iboratdir. Inson huquqlari ta'minotining milliy mexanizmi quyidagi turlardan iborat:

- iqtisodiy kafolatlar;
- ijtimoiy kafolatlar;
- mafkuraviy kafolatlar;
- siyosiy kafolatlar;
- huquqiy kafolatlar;

Huquqiy kafolatlar — fuqarolarga berilgan huquq va erkinliklarining amalga oshirishning huquqiy chora-tadbirlaridir. Ushbu tushunchaga quyidagicha ta'rif berish mumkin; kafolatlar— fuqarolarga berilgan huquq va erkinliklarining amalgam oshirishning huquqiy chora-tadbirlaridir.

Shaxsiy huquq va erkinliklar tartibi Konstitutsiyada yashash huquqi bilan boshlanadi. Bu asosiy, insonning tabiiy huquqi, uning xavfsizligi kafolatidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, davlat tomonidan inson hayoti uchun ijobiy muhitni yaratish va shaxs sha'nini himoyalash majburiyatini ko'rsatadi. Konstitutsiyaga bunday tarbiyaviy-ahloqiy omillarning kiritilishi amaliy ma'noga ega, ya'ni shaxs g'oyasini jamiyatning eng yuqori qadriyati sifatida e'tirof etadi. O'lim jazosini bekor qilinishi, inson huquqlarining xalqaro standartlari, Respublika

qonunchiligida va amaliyotida qo'llanilayotganligining yaqqol tasdig'idir.

“Biz uchun fuqarolik jamiyati – bu ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishiga mo'nelik qilmaydi, aksincha, yordam beradi. Shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to'la darajada ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi”[1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'zbekiston Respublikasining inson huquqlari bo'yicha milliy davlat tashkilotlariga quyidagilar kiradi:

- 1) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman);(ombudsman orinbosari – Bola huquqlari boyicha vakil;[2]
- 2) Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi;
- 3) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi amaldagi qonunchilik hujjatlari monitoringi instituti.
- 4) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Biznes ombudsman.

O'zbekiston Respublikasi Vena deklaratsiya hamda Harakat dasturi asosida inson huquqlari bo'yicha quyidagi milliy institutlar tashkil etildi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman), Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi amaldagi qonunchilik hujjatlari monitoringi instituti.

1996-yil 31-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni asosida inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi tashkil etildi. Markazning asosiy maqsadi — huquq va erkinliklarni himoya qilish ko'p tarmoqli tizimini kompleks tartibida birinchi darajali masalalarni hal etish – inson huquqlari sohasida Milliy dastur ishlab chiqish va tadbiiq etish hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi amaldagi qonunchilik hujjatlari monitoringi Instituti qonunchilik ustidan monitoring olib boruvchi, qabul qilinishi kerak bo'lgan qonunlarni ekspertizadan o'tkazuvchi ilmiy – hamda tadqiqot olib boradigan tizim hisoblanib davlat rahbarining qonunchilik tashabbusi huquqining amalga oshirishiga ko'maklashadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

- davlat va jamiyat qurilishi sohasidagi demokratik islohotlar jarayonini, hokimiyatlar bo'linishi konstitutsiyaviy prinsipining hayotga izchil tadbiiq etilishini tizimli tahlil qilish, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati tarmoqlarining mustaqilligi va erkinligini kuchaytirish, ularning kelishilgan holda faoliyat yuritishi hamda hamkorligini, ular o'rtasida muvozanatni ta'minlash, davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali tizimini shakllantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

- hokimiyatning ijro etuvchi tarmog'ini isloh qilish va demokratlashtirish

masalalarini kompleks o'rganish, ayrim hokimiyat vakolatlari va funksiyalarini markaziy davlat hokimiyati organlaridan, hukumatdan boshlab mahalliy davlat hokimiyati organlariga fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkazish bo'yicha takliflar ishlab chiqish. "Bizning oldimizda turgan yana bir muhim va dolzarb vazifa-u ham bo'lsa, "Kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o'tish" degan shiorni amalda ro'yobga chiqarishdir. Bu maqsadga erishish uchun, birinchidan, davlatimizning markaziy va yuqori boshqaruv organlari vakolatlarini bosqichma-bosqich quyi tizimga, shu jumladan, o'zini-o'zi boshqarish tuzilmalariga o'tkazish talab qilinadi"[3]

- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari, siyosiy partiyalarning parlamentdagi fraksiyalari, joylardagi deputatlik guruhlarining qonun ijodkorligi, nazorat – tahlil faoliyati samaradorligini oshirish masalalarini chuqur o'rganish;

- Siyosiy partiyalarning davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini shakllantirishdagi ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan samarali parlament, deputatlik nazoratini amalga oshirishdagi rolini kuchaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;- Jamiyatda demokratiya va adolatni ta'minlashning eng muhim omili sifatida sud hokimiyati mustaqilligi va erkinligini mustahkamlash jarayonlarini kompleks tahlil qilish, sudni inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini muhofaza va himoya etishga xizmat qiladigan davlatning tom ma'nodagi mustaqil institutga aylantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

- Hokimiyatlar bo'linishi prinsipini hayotga tatbiq etish, ularning samarali tarzda kelishilgan holda faoliyat yuritishi hamda hamkorligini ta'minlash bo'yicha rivojlangan demokratik mamlakatlar tajribasini tizimli o'rganish, ushbu tajribadan globallashtirish sharoitida jahonda ro'y berayotgan demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishning zamonaviy tendensiyalarini hisobga olgan holda davlat qurilishi tizimida foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

NATIJARLAR

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Inson huquqlarini himoya qilish boshqarmasi inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish yo'lida ixtisoslashgan organ sifatida harakat qiladi. Boshqarmaning asosiy vazifalari qatoriga inson huquqlari va unga amal qilish sohasidagi qonunchilikni tahlil qilish; inson huquqlari asosidagi mavjud bo'lgan qonunchilikni mukammallashtirish; konstitutsiya va qonunlar bilan belgilab qo'yilgan inson huquqlari bo'yicha qonunlarga amal qilishni ta'minlash kiradi. Ko'p millatli mamlakat hisoblangan O'zbekistonda 140 dan ortiq milliy madaniy markazlar o'z faoliyatini olib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 13-yanvardagi 10-sonli qarori asosida Respublika Baynalminal madaniy markazi tashkil etildi. Markaz barcha madaniy markazlarga faoliyatida amaliy va uslub jihatidan o'z yordamini berish bilan birgalikda mamlakatda istiqomat qiluvchi turli millat va elatlarning vakillarining ehtiyojlarini qondirishda o'z

ko'magini ko'rsatadi. Inson huquqlari kafolatlari bo'yicha xalqaro mexanizmlar. Bir qator mamlaklar o'zlarining rasmiy bayonotlarida BMT ustaviga asosan muayyan inson huquqlariga irqiy, jinsiy, til va diniy kamsitishlarsiz rioya qilinishini ta'minlashda davlat yurisdiksiyasini rad qildilar. Boshqa guruh davlatlari esa BMT Ustavining yuridik majburiyiligini tan olishgan holda davlat suvereniteti tushunchasini mutloqlashtirishib, inson huquqlari sohasi butunlay davlatning ichki vakolati deb hisoblashlarini bildirishdi[4].

XULOSA

Inson huquqlarini himoya qilish xalqaro mexanizmi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- BMT ning Nizomida ko'rsatib o'tilgan organlar;
- BMT ning konvensiyaviy organlari;
- Maxsus proseduralar;
- BMT ning ixtisoslashgan tashkilotlari;
- BMT ning Nizomida ko'zda tutilgan organlariga:

BMT Bosh Assambleyasi;

Xavfsizlik Kengashi;

Inson huquqlari bo'yicha xalqaro qo'mita 1977-yilda tashkil etilgan. Bola huquqlari bo'yicha Qo'mitaning birinchi yig'ilishi 1991-yilda o'tkazilgan. Qo'mita 10 ta vakildan iborat. Unga Bola huquqlarini rag'batlantirish uchun qo'shilgan davlatlar orasida doimiy muolqot tashkillash vazifasi yuklatiladi. Qo'mita 1989-yilgi Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyani ratifikatsiya qilgan yoki unga qo'shilgan davlatlar tomonidan majburiyatlarning bajarilishini nazorat qiladi. A'zo davlatlar doimo Qo'mitaga Konvensiyaning bajarilishi va Bola huquqlarining muhofaza qilinishiga doir qabul qilingan chora-tadbirlariga doir hisobotlar taqdim qiladi. Bu hisobotlar oshkora qilinadi va milliy darajasida keng tarqatiladi. Inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha mintaqaviy xalqaro tashkilotlar ham bu borada boshlang'ich umumlashtiruvchi ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti – 1997. 80-bet.
2. “Bola huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish boyicha qoshimcha chora-tadbirlar togrisida”gi Prezident qarori. <https://lex.uz/docs/-4831107>
3. I.Karimov. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. Toshkent .O'zbekiston nashriyoti 2002. 167-bet
4. Misol uchun, sobiq SSSR mazkur masalada maqbul bo'lmagan pozitsiyani

egallagan edi, bu esa 1948-yili BMT BAA da Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini qabul qilishda betaraf bo'lishiga asosiy sabablardan biri edi.

5. Jayawic Kagata. N.Hong Kong and the internatihnal prhtectihn hf human Rights//Human Rights in Hong Kong, 1992.P.160.

8. Иброҳимов Ф. А. Таълим тизимида модернизация зарурати. Барқарор тараққиётга эришишда узлуксиз таълим: муаммо ва ечимлар 2019. Том 1/244-бетлар.

9. Файзиев, И. Ш. (2020). Ўзбекистонда электрон ҳукумат: мавжуд имконият ва истиқболлар. Academic Research in Educational Sciences, 1(2), 232-240

10. Файзиев, И. Ш. (2020). Дахлдорлик тарбияси орқали фуқаролик жамиятини шакллантириш. Science and Education, 1(7).